

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA HISOB SO`ZLARNING QO`LLANISHI

Saidova Dildora Baxtiyarovna

Abduqaxxarov Ozodbek Ulug’bek o’g’li

Toshkent davlat stomatologiya instituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi va AL o’quvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “Boburnoma” asarining jozibadorligi, til uslubining go`zalligi va qomusiy asar ekanligi bilan butun dunyo xalqlariga tanilganligi va unda qo`llanilgan Hisob so`zlar (numerativ so`zlar) ning turlari, ma’nolarining xilma-xilligi va o`ziga xos xususiyatlari, hisob so`zlarni qo`llashda unga oid turkcha, atamalardan tashqari ko`pgina forscha va arabcha istilohlardan ham unumli foydalangani o`sha davr xalq tiliga yaqin bo`lishiga erishgan.

**Kalit so’zlar:** “Boburnoma”, Qomusiy asar, Hisob so`zlar (numerativ so`zlar), “yig’och”, “qadam”, “kuro’h”(kuruh), “qari”, “shar’iy”, ‘gaz” kabi tarixiy so`zlar, Bir pahr, “gariy (giriyl), pahar (pahr), pos” kabi o’lchov so`zlar, O’rta Osiyo, Hindiston.

Barchamizga ma’lumki, har bir xalqning ulug’ shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo`ladi. Ularni tilga olganimizda beixtiyor ular mansub bo`lgan millatning madaniyati, san’ati va adabiyoti, o`tmishi va buguni ko`z oldimizda namoyon bo`ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham ana shunday buyuk tariximiz, boy merosimizni dunyo xalqlariga tanitgan beqiyos iste’dod egasi, adabiyot tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir.

Bobur- buyuk podshoh, mislsiz adib va tarixchi, tilshunos, san’atshunos, etnograf, tabiatshunos va mohir sarkarda ham bo’lgan. Uning birkina “Boburnoma” asari jozibadorligi, til uslubining go`zalligi va qomusiy asar ekanligi bilan butun dunyo xalqlariga tanildi va manzur bo’ldi. “Boburnoma” 15- asrda o’zbek adabiy tilida bitilgan ilk nasriy asarlarning go`zal namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda tilshunoslikning etnografiya, fonetika, etimologiya, sarf masalalariga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Biz “Boburnoma” asarini o’qir ekanmiz, Boburning beqiyos salohiyat egasi ekanligiga yana bir bor amin bo’lamiz. Ya’ni unda O’rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo’lgan ulkalardagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

Asarni o’qir ekanman, unda qo`llanilgan Hisob so`zları (numerativ so`zlar) ning turlari, ma’nolarining xilma-xilligi va o`ziga xos xususiyatlarini o`zim uchun kashf qildim desam, mubolag’a bo`lmaydi. Bobur voqealarni bayon qilish jarayonida hisob

so`zlarni qo`llashda unga oid turkcha, atamalardan tashqari ko`pgina forscha va arabcha istilohlardan ham unumli foydalangani bois asar tilining chiroyli va mukammal bo`lishi , o`sha davr xalq tiliga yaqin bo`lishiga erishgan.

Tilshunoslikda son so`z turkumida “hisob so`zlar”, ya’ni numerativlar degan tushuncha keng qo`llaniladi. Ular miqdor bildiruvchi so`zlar hisoblanib va ular bog’langan so`z orasida qo`llanib, maxsus o`lchov bildiruvchi so`zlardir.

Bugungi kunda ulardan ham nutq jarayonida keng foydalananamiz. “Boburnoma” asarida ularning tarixiy variantlari ko`p uchraydi. Hisob so`zlari ma’nosiga ko`ra uzunlik o`lchovi, og’irlik o`lchovi, vaqt o`lchovi, maydon o`lchovi, qiymat o`lchovi kabi turlarga bo`linadi. “Boburnoma”da ushbu hisob so`zlari turlarining barchasi qo`llanganligiga guvoh bo`lamiz, lekin uning eng ko`p qo`llangan turi uzunlik o`lchovini ifodalovchi hisob so`zlaridir. E’tiborli jihatni, Bobur Andijon , Samarqand, Buxoro, Qobul va Hindiston kabi joy nomlari tasvirida turkiy, arabiyy va forsiy tillarga oid hisob so`zlaridan ustalik bilan foydalangan.

“Boburnoma” asarida uzunlik o`lchovini ifodalovchi “yig’och”, “ qadam”, “ kuro`h”(kuruh), “qari”, “shar’iy” , ‘gaz” kabi tarixiy so`zlar juda ko`p o’rinlarda qo`llanilgan.

“Yana biri Marg’inondir, Andijonning g’arbidadur, Andijondin yetti yig’och yo`ldur”. Ushbu parchada uzunlik o`lchovini ifodalovchi “yig’och” so`zi qo`llanilgan bo`lib, u taxminan 8 kilometrga teng masofani ifodalaydi. Navbatdagi parchada esa “qadam” hisob so`zidan foydalangan. Bu hisob so`zdan bugungi kunda ham keng foydalananamiz. “Temurbekdin burun Temurbekdek ulug’ podshoh Samarqandni poytaxt qilg’on emastur, Qo`rg’onini faslning ustidan buyurdimkim, qadam urdilar, o`n ming olti yuz qadam chiqtı...”. Ushbu parchada “qadam” hisob so`zi ham mustaqil so`z, ham hisob so`z ma’nosida qo`llangan.

Yoki, “Mahalloti qo`rg’ondin bir shar’iy yiroqroq tushubtur...”. Ushbu parchada qo`llangan “shar’iy” atamasi arabcha so`z bo`lib, taxminan, ikki-uch ming qadam miqdoridagi masofa o`lchovidir.

Quyidagi parchaga yuzlanamiz, “ Ko`hak suyi shimoldin oqar, Samarqanddin ikki kuruh(kuro`h) bo`lg’ay...”. “Kuruh” atamasi ham arabcha so`z bo`lib, to`rt ming qadamga teng uzunlik o`lchovidir. Ayrim manbalarda , taxminan ikki kilometrga teng deb ham berilgan.

“Isfaraning bir shar’isida janub sori pushtalarining orasida bir parcha tosh tushubtur, “Sangi oyina” derlar, uzunligi taxminan o`n qari bo`lg’ay...”

“Qari” bir metr chamasidagi uzunlik o`lchovi , taxminan 60 santimetr (0,75).

“ ...Bangola elchisi edi, Hinduston dasturi bila mulozamat qildi. Bir gaz otimi yer kelib, ta’zim qilib yondi...” Parchada qo`llangan “gaz” atamasi forscha so`z bo`lib, taxminan 0,71 santimetrga teng uzunlik o`lchov birligidir.

“Boburnoma” asarida nafaqat uzunlik o`lchovini ifodalaovchi hisob so`zlardan , balki vaqt o`lchovini bildiruvchi hisob so`zlardan namunalar ham ko`plab uchraydi. Jumladan , “ gariy ( giriy), pahar ( pahr), pos” kabi so`zlar shular jumlasidandir.

“Panjshanba kuni oyning o`n yettisida uch giriydan keyin andin ko`chuldi...” tarixiy hisob so`zi bo`lgan “giriy” yigirma – yigirma besh daqiqa oralig’idagi vaqt o`lchovidir.

“Bir pahr yonushib edikim, Anvordin otlanildi “. “Pahr” ( pahar) forsiy so`z bo`lib, bir kecha –kunduzning sakkizdan biri, ya’ni uch soatli vaqt o`lchovidir. Ayrim parchalarda “pos” hisob so`zi ham unga ma’nodosh sifatida qo`llanilgan.

Bobur yuqoridagi parchalarda “shar’iy, kuruh, gaz , giriy,pahar, pos kabi arabcha va forschha so`zlarni o`z o`rnida qo`llaganki, ular vositasida asar tili va imkoniyatini kengaytirgan hamda turkiy tilning o`zlashma so`zlar hisobiga boyishiga hissa qo`shgan.

Yuqorida keltirilgan parchalardan ko`rinib turibdiki, Bobur har bir voqeahodisani tasvirlashda o`ta aniqlikka, sinchkovlikka rioya qilganki,asarni o`qigan o`quvchi uning hech bir ma’lumotni shunchaki tasvirlamasligi, hech bir ma’lumotga befarq bo`lmasligining guvohi bo`ladi.

Bobur buyuk tarixiy siymo, yetuk olim, yuksak fazilatli inson sifatida barcha xalq olimlari diqqat- e’tiborini qozonganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz va yana bir bor faxr etamiz. Zero Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “ ...Mirzo Bobur bizning bobomiz, bizning qonimiz, bizning bolalarimizga g’urur bilan aytadigan buyuk ajdodimizdir”.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” ( 6-7-299-327-328-betlar)
2. O’zbek tilining izohli lug’ati.
3. Berdaq Yusuf “Mumtoz adabiy asarlar o’quv lug’ati.(211-318-325-427-betlar
4. G’anijon Abdurahmonov “Hozirgi o’zbek adabiy tili”
5. Boqjon To’xliyev AL uchun, Adabiyot II (157-187-betlar)